

O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 29 177,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 10,6 %ga oshdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi¹	29 177,1	110,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 896,9	173,7
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	1 364,8	111,1
Buxoro	1 611,2	111,4
Jizzax	682,2	118,3
Qashqadaryo	1 685,5	113,4
Navoiy	1 332,1	106,0
Namangan	1 546,4	108,2
Samarqand	1 655,5	112,1
Surxondaryo	1 194,6	111,8
Sirdaryo	596,6	119,0
Toshkent	3 422,7	112,5
Farg'ona	1 808,8	111,6
Xorazm	1 182,4	108,3
Toshkent shahri	8 726,1	110,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)


¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- bino va inshootlar qurilishi yo'nalishi 70,2 % ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 7,2 %ga oshdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi yo'nalishi 18,9 % ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 25,2 %ga oshdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,9 % ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 10,8 %ga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	3 682,4	1 814,5	874,6
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	97,0	166,0	123,7
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	8 441,4	3 689,4	2 316,1
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	109,7	111,7	106,7
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	8 358,5	0,2	-
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	109,6	121,9	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 6 371,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 13,9 %ga oshdi. Umumiy hajmdagi ulushi 21,8 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 49,5 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 9,7 %ga oshib, 14 446,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 28,7 % (8 358,7 mlrd so'm) bo'lib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 9,6 %ga oshdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari (yanvar-fevral oylari uchun)




Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
O'zbekiston Respublikasi²	6 371,5	14 446,9	8 358,7	113,9	109,7	109,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	812,3	681,3	403,3	1 286,7	105,4	105,6
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	130,2	803,7	430,9	147,4	106,7	111,1
Buxoro	268,3	735,0	607,9	135,9	105,3	110,3
Jizzax	98,2	325,4	258,6	276,0	107,0	109,1
Qashqadaryo	420,1	635,2	630,2	128,2	103,7	115,3
Navoiy	271,2	610,3	450,6	91,9	112,2	107,8
Namangan	81,4	756,7	708,3	78,4	110,1	110,9
Samarqand	247,5	1 039,7	368,3	151,6	106,1	110,5
Surxondaryo	104,0	591,2	499,4	116,5	111,0	111,8
Sirdaryo	108,9	354,8	132,9	293,0	104,2	107,3
Toshkent	782,4	1 346,6	1 293,7	120,1	109,8	111,1
Farg'ona	327,0	924,7	557,1	113,7	112,9	108,5
Xorazm	99,7	399,8	682,9	112,8	108,6	107,5
Toshkent shahri	2 149,0	5 242,5	1 334,6	106,9	112,9	106,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qoraqalpog'iston Respublikasida (2025-yilning mos davriga nisbatan 1 286,7 %), Sirdaryo viloyatida (293 %) hamda Jizzax viloyatida (276 %) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari ulushi



² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarini o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, yer qatlamini ochish, madaniy-texnik ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlari qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumotlar uchun havolalar:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
D. Xidraliyeva
71 203-80-00 (1163)

Manzil:

